

## Ona tili va adabiyoti (qozoq tili va adabiyoti)

*5111300 - Ona tili va adabiyoti (qozoq tili va adabiyoti)*- umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun qozoq tili va adabiyoti o'qituvchisini tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

### **5111300 – Ona tili va adabiyoti (qozoq tili va adabiyoti) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi**

#### **4.1 Bakalavrning kasbiy faoliyat sohasi**

*5111300 – Ona tili va adabiyoti (qozoq tili va adabiyoti)*– umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun qozoq tili va adabiyoti o'qituvchisini tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

#### **4.2 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati obyektlari**

*5111300 – Ona tili va adabiyoti (qozoq tili va adabiyoti)* ta'lim yo'nalishida bakalavrlarning kasbiy faoliyati obyektlari – umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, o'quvchilar, o'quv-tarbiya jarayoni, o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari, qozoq tili va adabiyoti, arab grafikasi.

#### **4.3 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari**

*5111300 – Ona tili va adabiyoti (qozoq tili va adabiyoti)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr o'z psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlarini yuritishi mumkin:

- o'qituvchilik;
- tarbiyachilik;
- o'quv-metodik;
- ilmiy-tadqiqot.

Bakalavr tayyorlanadigan kasbiy faoliyatning muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim tizimi tomonidan aniqlanadi.

#### 4.4 Bakalavrlar kasbiy faoliyatining vazifalari

**5111300 – Ona tili va adabiyoti (qozoq tili va adabiyoti)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr o'z psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin:

- **o'qituvchilik:** akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablarida qozoq tili va adabiyoti fani o'qituvchisi;

- **tarbiyachilik:** maktabdan tashqari muassasalarda faoliyat;

- **o'quv-metodik:** ushbu yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist;

- **ilmiy-tadqiqot:** o'quv jarayoni bilan bog'liq jarayonni o'rganuvchi ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishi mumkin.